

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2023 yildagi faoliyati moliyaviy natijalari va Biznes reja ijrosi bo‘yicha hisobot


Bankning 2023 yil uchun mo‘ljallangan Biznes rejasida belgilangan ko‘rsatkichlar va vazifalar ijrosi bo‘yicha joriy yilda qo‘yidagi natijalarga erishildi.

Umumiy kapital 900,2 mlrd.so‘mga yoki 11,5%ga oshib, 8,7 trln.so‘mni tashkil qildi.

Jami aktivlar 10,4 trln.so‘mga yoki 16,1%ga oshib, 74,6 trln.so‘mni tashkil qildi.

Kredit qo‘yilmalari 9,0 trln.so‘mga yoki 18,8%ga ortib, 57,1 trln.so‘mni tashkil qildi. Jami aktivlardagi ulushi 74,8% dan 76,5%ga ko‘tarildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 trln.so‘mga yoki 42.6%ga ko‘p, ya‘ni 30.8 trln.so‘m kreditlar ajratildi. Mazkur kreditlarni 21,8 trln. so‘mi korporativ biznesga (2022 yilda 15,2 trln.so‘m), 4,6 trln.so‘mi kichik va o‘rta biznesga (2022 yilda 3,7 trln.so‘m), 4,6 trln.so‘mi chakana biznesga (2022 yilda 2,7 trln.so‘m) yo‘naltirildi.



Bankda doimiy ravishda on-layn tartibda ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi tobora ortib bormoqda.

Hisobot davrida chakana kreditlarning 13.6% on-layn tartibda amalga oshirildi.

Aholi omonatlarining 1.0 trln.so‘mi yoki milliy valyutada, 1.2 mln. AQSh dollari mobil ilova orqali qabul qilindi.

O‘tgan yilga nisbatan muomaladagi plastik kartalar soni 20.3%ga ortib, 2,4 mln.donani, bankomat va infokiosklar 41.9%ga ortib, 674 tani tashkil qildi.

Respublikaning turli xududlarida barcha turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi zamonaviy bank xizmatlari markazlari mavjud soni 90 taga, 1- ta filial, o‘z-o‘ziga bank xizmatlari ko‘rsatish markazlari (24/7) 173 taga yetkazildi.

Depozit bazasi 13,8 trln.so‘mni tashkil.

O'tgan yilga nisbatan 33.7%ga yoki 2.8 trln. so'mga ko'p daromad olinib jami 11,1 trln. so'm daromad ko'rildi. Sof foyda rejasi 118%ga bajarilib 911,7 mlrd.so'm foyda ko'rildi.

Aktivlar rentabelligi (ROA) 2022 yilda 1,3%ni, kapital rentabelligi (ROE) 11.1%ni, operatsion samaradorlik (CIR) ko'rsatgichi 31,5%ni tashkil qildi.

Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida "Fitch reytings" xamda "Standart end purs" xalqaro reyting agentliklari tomonidan bankka berilgan "BB-" reyting baholari saqlanib qolmoqda.

**Buxgalteriya hisobi va moliyaviy
menejment departament direktori v.v.b.**

A.Ravshanov